

TASDIQLAYMAN  
Farg'ona viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig'i



Sh.R.Mamadaliyev  
2025-yil 15-aprel

**Buvayda tumani statistika bo'limi to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Buvayda tumani statistika bo'limining (keyingi o'rirlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlar, shuningdek, faoliyatini tashkil etishni belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldag'i "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-sod Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini taskil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-sod qarori bilan tashkil etilgan etilgan va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (keyingi o'rirlarda – Milliy statistika qo'mitasi) yagona tizimiga kiruvchi statistika organi hisoblanadi va o'z faoliyatida Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o'rirlarda - Boshqarma) ga bo'ysunadi.

Bo'lim mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita viloyat statistika boshqarmasiga bo'ysunadi.

3. Bo'lim mahalliy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilarni rasmiy statistika axborotiga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg'or statistika axboroti tizimining faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan rasmiy statistikasi sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.

4. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom, Milliy statistika qo'mitasi hamda viloyat statistika boshqarmasining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqa mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o‘zaro hamkorlikda, shu jumladan, idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

6. Bo‘lim o‘z faoliyatini har yili O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining Statistika Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturiga asosan Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Bo‘limning qonuniy faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabдор shaxslarining har qanday aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

8. Bo‘lim Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

9. Bo‘limning joylashgan manzili: Farg‘ona viloyati, Buvayda tumani, Yangiyo‘rg‘on MFY, Hilol ko‘chasi, 19-uy.

## **2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari**

10. Quyidagilar bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va rasmiy statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta’minlash;

ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e’lon qilish;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni va statistik ma’lumotlardan foydalanuvchi aholini Buvayda tumani bo‘yicha statistika axborotlari bilan belgilangan tartibda ta’minlash;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlash;

Bo‘limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o‘z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas’uliyatini oshirish;

ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

11. Bo‘lim o‘z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta’minlash borasida:

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta’minkaydi;

statistika dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi;

statistika organlari tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘radi;

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta’minlaydi;

xalqaro tavfsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO modellari asosida) hamda horijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini joriy etishni ta’minlaydi.

foydanuvchilarning statistika axborotlariga bo‘lgan talablaridan kelib chiqqan holda statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi va Statistika boshqarmasiga kiritadi;

statistika kuzatuvlari shakllarining joriy etilishini tashkil etadi, jumladan hisobot taqdim etuvchi subyektlarni tasdiqlangan statistika hisoboti shakllari to‘g‘risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to‘ldirish va taqdim etish bo‘yicha tushuntirishlar beradi;

statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasiga qat’iy amal qilgan holda o‘tkazilishini ta’minlaydi.

*b) foydanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularni qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:*

Statistika dasturining bajarilishini ta’minlaydi;

tumanda statistika kuzatuvlari shakllarining joriy etilishini tashkil etadi, jumladan hisobot taqdim etuvchi subyektlarni tasdiqlangan statistika hisoboti shakllari to‘g‘risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to‘ldirish va taqdim etish bo‘yicha tushuntirishlar beradi;

hudud bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan statistika kuzatuvlarini o‘z vaqtida va sifatlari amalga oshirilishini tashkil etadi;

tumanning rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishining borishini o‘z vaqtida va ishonchli statistik hisobini ta’minlaydi;

statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda, zarur hollarda qog‘oz ko‘rinishida yig‘ishni, ro‘yxatdan o‘tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so‘rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat’iy amal qilgan holda tashkil etadi va ta’minlaydi;

hudud bo'yicha eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

statistika, hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkorligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishslash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

respondentlarga elektron hujjat shaklidagi statistika kuzatuvlari shakllarini tuzish va taqdim etish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan bepul foydalanish imkonini beradi;

respondentlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullari qo'llanishini ta'minlaydi;

olingan statistika ma'lumotlarining mahfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida bo'lim faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning keng ommasi uchun hudud bo'yicha statistik axborotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkorligini ta'minlaydi;

tumanning rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo'yicha boshqa hududiy boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

mahalliy ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyanlari tavsiyelovchi kompleks tahliliy ma'ruzalar, press-relizlar va maqolalar tayyorlaydi, tarqatilayotgan statistik ma'lumotlarga tahliliy va ma'lumotnomalar materiallar majburiy tartibda ilova qilinishini ta'minlaydi, ushbu materiallarni mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) berib borilishini tashkil etadi;

milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari hamda hududlarning rivojlanishini, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, xom ashyo resurlarini chuqur qayta ishslash, hududlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning

amalga oshirilishini yanada to‘liq aks ettiradigan statistik axborotlarni tezkor va sifatlari tayyorlashda ishtirok etadi;

Bo‘limning ma’lumotlari asosida mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) tahliliy lavhalar, diagrammalar va grafiklarni keng namoyish qilish yo‘li bilan alohida statistik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida aholini xabardor qilish choralarini ko‘radi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika axborotlari masalalari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnama asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko‘rsatadi.

*v) ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishslash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e’lon qilish sohasida:*

Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan ishlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi;

rasmiy statistika ma’lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etishda ishtirok etadi;

tuman bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat va hududiy dasturlarning bajarilishi yuzasidan Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan Statistika kuzatuvlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

*d) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish sohasida:*

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrida hududda joylashgan yuridik shaxslarni to‘liq hisobga olishni va ular faoliyati holatidagi o‘zgarishlarni monitoring qilishni ta’minlaydi.

*e) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minalash sohasida:*

statistika axborotlarining tezkorlik bilan uzatilishini va qayta ishlanishini ta’minlovchi yangi axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini bo‘lim faoliyatiga joriy etishda ishtirok etadi;

statistika organlari axborot resurslari va tizimlarining axborot xavfsizligini ta’minlash, statistika axborot-hisoblash tizimini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish bo‘yicha zarur choralarini ko‘radi.

*j) Bo‘limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o‘z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas’uliyatini oshirish sohasida:*

bo‘lim belgilangan tartibda kadrlar malakasi oshirilishi va qayta tayyorlanishini tizimli asosda ta’minlaydi;

jismoniy va yuridik shaxslaming murojaatlari asosida statistika organlari ishini takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;

bo‘lim xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo‘lmaydigan munosabatni shakllantirish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘radi;

rasmiy statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va statistik ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchlilagini ta’minlash maqsadida respondentlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

statistika faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni tayyorlash jarayonlarida tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og‘zaki murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqilishini, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilinishini va qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalariga javoblar yuborilishini ta’minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan rasmiy statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarni, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralarini amalga oshiradi.

*z) ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularning yuqori darajada amalga oshirilishini ta’minlash sohasida:*

ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni amalga oshiradi;

ro‘yxatga olishga jalb etiladigan xodimlarni o‘qitish ishlarini tashkil etadi;

ro‘yxatga olish jarayonlarini sifatli tashkil etilishini ta’minlaydi;

ro‘yxatga olish varaqlari va boshqa ro‘yxatga olish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi) va yo‘q qilinishi ta’minlaydi.

Bo‘lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

### **3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi**

12. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda - ularning vakolatxonalari va filiallaridan) statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so‘rash va olish;

yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek, yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning registrlari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari va ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvarlari Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiya bo‘yicha olib borish va olingan ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistika kuzatuvarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistika axborotlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

rasmiy statistika ma’lumotlardan noto‘g‘ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko‘rib chiqish, ular bo‘yicha tushuntirishlar berish;

olinayotgan statistika ma’lumotlarining to‘liqligi, ishonchliligi va xolisonaligini tahlildan o‘tkazish;

statistika ma’lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish va Milliy statistika qo‘mitasi bilan kelishilgan holda hudud bo‘yicha yig‘ma statistika ma’lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma’muriy jazo choralar ko‘rish; davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga qo‘llaniladigan ma’muriy jarimalardan tushumlar hisobiga Milliy statistika qo‘mitasining maxsus jamg‘armasini shakllantirishda ishtirop etish va undan belgilangan tartibda foydalanish;

shartnoma asosida statistik, tahliliy, axborot xizmatlari va Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rsatish;

Milliy statistika qo‘mitasi topshirig‘iga ko‘ra alohida vazifalarni bajarish uchun funksional bo‘linmalar tashkil qilish.

Bo‘lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Bo‘lim va uning mansabdor shaxslari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Bo‘limning mansabdar shaxslari harakatlari ustidan shikoyat qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Bo‘lim boshlig‘i va xodimlari rasmiy statistika sohasidagi qonun hujjatlarini talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistik ma’lumotlar, statistik axborotlar va (yoki) ma’lumotlar bazasini yo‘qotganlik, sotganlik, bergenlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek statistika ma’lumotlarini yashirganlik va buzib ko‘rsatganlik uchun, yoxud ko‘rsatib o‘tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko‘maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

#### **4-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish**

15. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘lim faoliyatiga umumiylar rahbarlik qiladi va bo‘limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda bo‘limni ifodalaydi;

bo‘limda huquqiy madaniyatni oshirishga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib boradi va boshqa choralarini ko‘radi;

bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

bo‘lim xodimlarining majburiyatlarini va javobgarligi darajasini belgilaydi;

bo‘lim xodimlarini boshqarma tomonidan mukofotlash, rag‘batlantirish, yuqori malakasi uchun ustamalar belgilash va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha boshqarma boshlig‘iga takliflar kiritadi;

bo‘limga yuklangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash uchun amaldagi qonun hujjatlarini doirasida zarur choralar ko‘radi.

bo‘lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

16. Lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish:

Bo‘lim boshlig‘i bevosita Milliy statistika qo‘mitasi raisi bilan kelishilgan holda, boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bo‘lim xodimlari boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

#### **5-bob. Bo‘lim faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta’minoti**

17. Bo‘limning mol-mulkini viloyat statistika boshqarmasi tomonidan foydalanish uchun ajratilgan asosiy vositalar, shuningdek, qiymati viloyat statistika boshqarmasi balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklarni tashkil etadi.

18. Bo‘limning moddiy-texnika ta’minoti Statistika ishlari dasturiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Statistika dasturida belgilangan amalga oshirilgan statistika ishlari uchun haq to‘lash, boshqarma tomonidan Milliy statistika qo‘mitasiga har oyda taqdim

etiladigan, bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘lari hisobiga Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan ta’minlanadi.

Statistika dasturiga kiritilmagan va ularni ishlab chiqishga qo‘sishimcha xarajatlar talab qilinadigan qo‘sishimcha statistika ishlariga haq to‘lash buyurtmachilar mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Bo‘limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o‘z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag‘batlantirish boshqarma tomonidan amalga oshiriladi.

#### **6-bob. Yakunlovchi qoida**

19. Bo‘limni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.